



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL — MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

WWW.XS.UZ • E-mail: info@xs.uz

2026-yil 17-mart, № 51 (9222)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



MIS SANOATIDA YUQORI QIYMAT ZANJIRINI YARATISH — KELAJAK SANOATINI BARPO ETISH DEMAKDIR

Prezident Shavkat Mirziyoyev 16-mart kuni Olmaliq kon-metallurgiya kombinatiga tashrif buyurib, 3-mis boyitish fabrikasini ishga tushirish marosimida ishtirok etdi. Shuningdek, davlatimiz rahbari mis konsentratini ishlab chiqarish jarayoni va kombinatda tashkil etilgan Raqamlashtirilgan boshqaruv markazi faoliyati bilan tanishdi, tog'-kon sanoatidagi yirik investitsiya loyihalarini jadallashtirish chora-tadbirlari yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.



Davlatimiz rahbari dastlab 3-mis boyitish fabrikasini ishga tushirish marosimida qatnashdi.

Yurtimizda sanoat, energetika, infratuzilma, servis sohalarda ko'plab yirik loyihalar ishga tushirilmoqda. Har bir hududda yangi uy-joy massivlari, ta'lim va tibbiyot muassasalari, turizm va madaniyat maskanlari bunyod etilmoqda.

Mamlakatimiz sanoati rivoji uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan 3-mis boyitish fabrikasi ham ana shunday keng ko'lamli ishlar va bunyodkor xalqimizning fidokorona mehnati mahsulidir.

"Yoshlik-1" konini o'zlashtirish dasturi doirasida 196 gektar maydonda amalga oshirilayotgan qiymati 2 milliard 700 million dollarlik ushbu loyiha shunchaki korxonaga emas, balki mamlakatimiz sanoat qudratini yanada mustahkamlaydigan, tabiiy

boyliklarimizni chuqur qayta ishlashga xizmat qiladigan zamonaviy industrial majmua hisoblanadi.

Fabrika yiliga 60 million tonna ma'danni qayta ishlab, 900 ming tonnaga yaqin mis konsentratini ishlab chiqarish quvvati bilan nafaqat Markaziy Osiyodagi eng yirik mis ishlab chiqaruvchi majmualardan biri, balki dunyodagi yirik boyitish fabrikalari sirasiga kiradi.

Loyihani jahon standartlari darajasida amalga oshirish maqsadida Italiyaning "Wood", Buyuk Britaniyaning "Worley Parsons" kabi kompaniyalari jalb etildi. Fabrikada jahonning yetakchi kompaniyalari — "Metso", "FLSmidth", "Weir Minerals" va "Siemens" texnologiyalari joriy qilingan.

Mazkur loyiha hududdagi turdosh sanoat tarmoqlari rivojiga ham kuchli turki berdi. Qurilishda ishlatilgan metall konstruksiyalar hajmiga teng

materialdan 10 ta Eyfel minorasi, temir-beton sarfiga esa qariyb 2,5 ta Burj Xalifa minorasi barpo etish mumkin. Bu fabrikaning megaloyiha ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

"Yashil makon" umummilliy dasturi doirasida fabrika hududida keng ko'lamli ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Tomchilatib sug'orish tizimlari va ekodizayn yechimlari sanoat hamda tabiat muvozanatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Prezidentimiz o'z nutqida so'nggi yillarda tog'-kon sanoatida amalga oshirilgan islohotlar natijalari va kelgusi rejalar haqida so'z yuritdi.

Konlarni investorlarga berish bo'yicha shaffof tizim yaratilganining hisobiga to'qqiz yilda 10 milliard dollar xorijiy investitsiya kiritildi. Bugun sohada 65 ta xususiy korxonaga faoliyat yuritmoqda. Natijada tarmoqda ishlab chiqarish

1,7 barobar o'sib, o'tgan yilda 270 trillion so'mga yetdi. Sanoat hajmi va byudjetga tushumning to'rtinchi qismi ushbu tarmoq hissasiga to'g'ri kelmoqda. Muhimi, yuqori daromadli eng ko'p ish o'rinlari ham aynan shu sohada korxonalarda.

Xorijiy hamkorlar bilan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash yo'lga qo'yilgani ham eng katta yutuqlardan biri bo'lgani ta'kidlandi.

Xususan, Olmaliqda "Moskva po'lat va qorishmalar instituti" universiteti filiali ("MISiS"), Olmaliq texnika instituti, Toshkent shahrida Geologiya fanlari universiteti (Uxan geologiya universiteti bilan hamkorlikda) hamda Italiyaning Piza universiteti filiali tashkil qilindi. Navoiy konchilik texnologiyalari universitetida ham Rossiya, Kanada, AQSH, Fransiya va Chilining ilg'or oliygohlari bilan qo'shma dasturlar yo'lga qo'yildi.

Buning samarasi o'laroq, ilgari qimmatbaho va rangli metallar, asosan, xomashyo shaklida eksport qilingan bo'lsa, bugun yiliga 100 ming tonna mis o'zimizda qayta ishlanib, yuqori qiymatli mahsulot yaratilmoqda, qisqa muddatda zargarlik sanoatida ishlab chiqarish 3,3 karra o'sib, 13 trillion so'mdan oshdi.

Prezidentimiz joriy yilning o'zida ishga tushadigan loyihalarni hisobga olib, misni chuqur qayta ishlash quvvatlari 240 ming tonnaga yetishini ta'kidladi. Yaqin ikki-uch yildagi yangi loyihalar natijasida bu ko'rsatkichlar yanada oshadi.

Mis sanoat, energetika, elektrotexnika, raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt, "yashil" taraqqiyot uchun strategik xomashyoga aylangani ko'rsatib o'tildi.

— Kimki mis sanoatida yuqori qiymat zanjirini yaratish, kelajak sanoatini barpo etgan bo'ladi. Qaysi davlat bu xomashyoni chuqur qayta ishlash uchun kuchli infratuzilma yaratsa, u minglab oilalarga daromad, hududlarga taraqqiyot, mamlakatga qudrat olib keladi. Shu bois biz islohotlarimizning ilk kunlaridan geologiya-qidiruv ishlariga alohida e'tibor qaratib, mavjud zaxiralar va ularni ishga solish bo'yicha imkoniyatlarimizni belgilab oldik, — dedi davlatimiz rahbari.

Birgina "Yoshlik-1" konidan joriy yilning o'zida 20 million tonna ruda qazib olinadi. Bu raqam kelgusi ikki yilda 60 million tonnaga yetadi.

Umuman, "Yoshlik-1" va "Qalmoqqir" konlarida 45 million tonna mis, 5 ming tonnadan ziyod oltin zaxirasining borligi, ushbu zaxira sanoatga kamida 100-yilga yetadigan kafolatli xomashyo bazasi bo'lishi ta'kidlandi. Konlardagi molibden, selen, tellur, reny kabi noyob metallar yangi innovatsion yo'nalishlardagi loyihalar uchun mustahkam zamin yaratadi.

3-mis boyitish fabrikasi to'liq ishga tushganidan keyin Olmaliq kombinatida mis konsentratining kunlik hajmi hozirgi 2 ming 400 tonnadan 5 ming tonnaga oshadi. Shu bilan birga, loyiha doirasida 6 mingdan ziyod yoshlar yuqori daromadli ish joyiga ega bo'ladi. Fabrikada AQSH, Germaniya, Rossiya, Xitoy va Finlyandiyaning tog'-kon sanoatidagi eng ilg'or texnologiyalari joriy qilinmoqda. Barcha texnologik jarayonlar raqamlashtirilib, sun'iy intellekt asosida yagona boshqaruv tizimiga ulanadi. Bularning hisobiga energiya sarfi 10 foizga, tannarx 15 foizga kamayadi, mehnat unumdorligi esa 10 foizga oshadi.

Bundan tashqari, qiymati 2,5 milliard dollarlik yangi mis eritish zavodini barpo etish bo'yicha ishlar ham boshlangan.

Umuman, ushbu 2 ta yirik quvvat hisobiga mis katodi ishlab chiqarish yillik hajmi 148,5 ming tonnadan 300 ming tonnaga, oltin 20 tonnadan 33 tonnaga, kumush 161 tonnadan 203 tonnaga, molibden 850 tonnadan 1,7 ming tonnaga yetishi ta'kidlandi. Shu bilan birga, uran qazib olish va kimyo sanoati uchun zarur xomashyo bo'lgan sulfat kislotasini ishlab chiqarish 3 karra oshadi.

Prezidentimiz bu ko'rsatkichlarni yana 1,5 karra oshirishga xizmat qiladigan 4-misni boyitish fabrikasi bo'yicha loyihaoldi ishlar jadal ketayotganini ta'kidladi.

O'zbekiston 2030-yilga qadar ishlab chiqarishni oltinda 175 tonnaga, kumushda 500 tonnaga, uranda 15 ming tonnaga, misda 500 ming tonnaga yetkazishni maqsad qilgan. Bu borada

amalga oshirilayotgan 22 milliard dollarlik loyihalar doirasida yaratiladigan 40 mingga yaqin yuqori daromadli ish o'rinlari yoshlarimiz uchun katta imkoniyat bo'ladi.

Davlatimiz rahbari fabrikani qurishda faol ishtirok etayotgan barcha ishchi-xodimlar, quruvchi va mashinistlar, muhandis va texnologlar, geolog va konchilar, o'zining tajribasi va kasbiy salohiyati bilan yoshlarga ustozlik qilayotgan faxriylar, loyihaga o'z hissasini qo'shayotgan xorijiy hamkorlarga chuqur minnatdorlik bildirdi. Fabrikaning yangi mehnat jamoasiga esa kelgusi ishlarida ulkan zafarlar tiladi.

Kombinat ishchilari, mehnat faxriylari, professor-o'qituvchilar bilan muloqot bo'ldi.

Marosim yakunida davlatimiz rahbari ramziy tugmani bosib, fabrika faoliyatiga start berdi.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida barpo etilgan mis konsentratini filtrlash korpusida bo'ldi.

3-mis boyitish fabrikasi tarkibidagi korpus yiliga 917 ming tonnaga yaqin mis konsentratini ishlab chiqarish quvvatiga ega. Zamonaviy sanoat press-filtrlari, nasos agregatlari, shlam va suv aylanma tizimlari o'rnatilgan. Uskunalar xalqaro standartlar asosida ishlab chiqarilgan bo'lib, yuqori samaradorlik va energiya tejamlorligi bilan ajralib turadi.

Ayni vaqtda qurilish ishlari to'liq yakunlanib, korpusda umumiy 5 ta press-filtrdan 3 tasi to'liq ishga tushirilgan, yana 2 tasi ishga tushirishga hozirlanmoqda.

Filtrlash korpusida flotatsiya jarayonidan kelgan mis konsentratini qabul qilish, konsentratni quyultirish va filtrlash, tindirilgan suvni ajratish va qayta ishlab chiqarishga qaytarish, tayyor mis konsentratini saqlash yoki keyingi qayta ishlash bosqichiga uzatish kabi texnologik jarayonlar amalga oshiriladi.

(Davomi 2-betda).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTON YETAKCHILARI TELEFON ORQALI MULOQOT QILDILAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 16-mart kuni Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari Qozog'iston Prezidentini yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasi bo'yicha referendum muvaffaqiyatli o'tkazilgani bilan samimiy tabrikladi.

Qabul qilingan yangilanishlar Qozog'istonning barqaror taraqqiyotini ta'minlash va mamlakatning xalqaro nufuzini mustahkamlashga ishonchli huquqiy asos bo'lishi va qo'shimcha sur'at bag'ishlashi ta'kidlandi.

O'zbekiston — Qozog'iston strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirish nuqtayi nazaridan yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari ham ko'rib chiqildi.

Savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport, madaniy-gumanitar va boshqa ustuvor sohalarda qo'shma loyiha va dasturlarni ilgari surishga alohida e'tibor qaratildi.

Yetakchilar xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashdilar, bo'lajak ikki va ko'p tomonlama tadbirlar rejasini muhokama qildilar.

Davlat rahbarlari, shuningdek, birodar xalqlarimizni yaqinlashib kelayotgan Ramazon hayiti va Navro'z bayrami munosabati samimiy qutlab, tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va bardavom ravnaq tiladilar.

O'ZA.

Uchrashuv

TINCH VA BARQAROR JAMIYAT BUNYODKORLARI

Kuni kecha Oliy Majlis Senatida jahonning nufuzli ta'lim muassasalaridan biri — AQSHning Garvard universiteti qoshida faoliyat yurituvchi Markaziy Osiyo va turkiy mamlakatlar kokusiga a'zo talabalar bilan uchrashuv tashkil etildi.

Unda Senat Raisi Tanzila Norboyeva hamda Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktorining birinchi o'rinbosari Shahnoza Mirziyoyeva ishtirok etdi.

Muloqot davomida O'zbekistonda iqtisodiyot, ta'lim tizimi va davlat boshqaruv

sohalarida uddalanayotgan keng qamrovli yangilanishlar, yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tashabbuslar hamda qonunchilikdagi dolzarb o'zgarishlar yuzasidan fikr almashildi.



Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

AHOLI HUQUQ VA MANFAATLARINING MUSTAHKAM ASOSI

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muhim voqe'larga e'tibor qaratildi, shuningdek, quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi.

Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida dastlab Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan aholi murojaatlari

bilan ishlash tizimini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida belgilab berilgan muhim vazifalarning ahamiyati haqida so'z yuritildi.



Amir Temur tavalludining 690-yilligiga

"MENING BIR BOG'IM BORDIR: SAMARQANDDAN BUXOROGACHA..."

Sohibqiron Amir Temur tug'ilganiga olti yuz to'qson yil to'lmoqda. Bu qutlug' sanani yuksak ruhda nishonlash haqida shu yil 5-fevral kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning keng ko'lamli qarori e'lon qilindi. Bu madaniy hayotimizda bag'oyat quvonchli hodisaga aylandi.

Oradan shuncha yillar o'tishiga qaramay, ulug' bobomiz davriga, shaxsiga, hayoti va faoliyatiga qiziqish nafaqat bizda, balki butun jahonda tobora ortib borayotganini

ko'rib, g'ururlanib ketasan kishi. Aytish mumkinki, nasli-nasabiyo millatidan qat'i nazar, Yer yuzida Sohobqiron taqdiriga befarq qaraydigan odam kam...

Ulug' zotning boshqa siymolaridan ajralib turadigan qanday fazilatlar bor? Insoniyatni qoyil qoldirib kelayotgan hodisalardan biri Amir Temurni buyuk shaxs sifatida yaqqol ko'rsatib turadigan fazilat, shubhasiz, bu uning bunyodkorlikka, bog'dorchilikka, obodonchilikka bo'lgan

mehri va shijoatidir. Muxtasar aytganda, u tom ma'noda bunyodkor! Amir Temurning yana ibratli fazilatlaridan biri shuki, har ishga kirishsa, qattiq kirishar edi. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, "Hazrat Sohobqironning buyuk himmati — har

ishni oxirigacha yetkurmaguncha o'turmashar edi..."

Rus sharqshunos olimi V. Bartold ham Sohobqironning bunyodkorligiga tan berib, Amir Temurni "o'ta serg'ayrat, jonkuvar-quruvchi", deb ataydi.



"(Sohobqiron) har yerdakim, imoratqa qobil yer ko'rsa erdi, ul yerda albatta bir imorat solur erdi..."

Sharafiddin Ali YAZDIY

MIS SANOATIDA YUQORI QIYMAT ZANJIRINI YARATISH — KELAJAK SANOATINI BARPO ETISH DEMAKDIR

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Bugungi kunda bir yerdə 130 nafarga yaqin ishchilar mehnat qilmoqda.

Davlatimiz rahbari ish jarayoni va tayyor mahsulotni ko'zdan kechirdi, xodimlar bilan suhbatlashdi.

Prezidentimiz ishtirokida shu yerning o'zida mis konsentratidan namunalari olish marosimi o'tkazildi. Namunalari 2 ta alohida idishga solinib, Olmaliq kombinati muzeyi va Toshkentdagi Davlat geologiya muzeyiga yuborildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida tashkil etilgan Raqamlashtirilgan boshqaruv markazi faoliyati bilan tanishdi.

Mazkur markaz kombinatning 1, 2 va 3-mis boyitish fabrikalaridagi ishlab chiqarish jarayonlarini muvofiqlashtirish, samaradorlikni oshirish va uzluksiz monitoringni ta'minlashda muhim o'rin tutmoqda.

Zamonaviy raqamli boshqaruv tizimlari, katta ekranli monitoring panellari, videokuzatuv vositalari, shuningdek, "Siemens PCS 7" va "AVEVA PI Vision" platformalari orqali maydalash, flotatsiya, quyultirish, filtrlash, reagentlar bilan ta'minlash, texnologik suv ta'minoti, sexlar va transport tizimi faoliyati real vaqt rejimida nazorat qilinmoqda.

Boshqacha aytganda, ushbu markaz fabrikaning o'ziga xos "miyasi" bo'lib, yigirma mingdan ziyod uskunalar yagona axborot tizimiga ulangan.

"Aqli" kameralar orqali dastlabki monitoring amalga oshiriladi, sun'iy intellekt yordamida esa anomal holatlar avtomatik tarzda aniqlanadi. Bu ma'lumotlarni yagona axborot tizimi orqali tahlil qilish va tezkor qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Prezidentimiz markaz faoliyati bilan tanishar ekan, sun'iy intellekt orqali, ayniqsa, tog'-kon va metallurgiya tarmoqlarida samaradorlikni oshirish bo'yicha katta imkoniyatlar borligini ta'kidladi. Shu bilan birga, suv resurslaridan oqilona foydalanish

maqsadida zamonaviy resurs tejoychi texnologiyalarni keng joriy etish zarurligiga alohida e'tibor qaratildi.

Shu yerning o'zida davlatimiz rahbariga kombinatning ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarini yanada raqamlashtirish bo'yicha rejalar taqdimot qilindi.

Qayd etilganidek, kundan ma'dan qazib olishdan boshlab tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan barcha jarayonlar bosqichma-bosqich raqamlashtirilmoqda. Kelgusi besh yilda har bir bosqichga sun'iy intellekt yechimlarini keng joriy etish ko'zda tutilgan.

Sakson yil davomida to'plangan geologik va marksheyderlik ma'lumotlari asosida konlarni raqamlashtirish ishlarining borishi haqida ham axborot berildi. Jumladan, "Raqamli kon" tizimi kunlik, haftalik va oylik qazish ishlarining aniq yo'nalishlarini belgilash imkonini bermoqda.

Sun'iy intellekt asosida karyer yo'llari holati nazorat qilinmoqda, samosval shinalarining bosimi va harorati datchiklar orqali kuzatib borilmoqda. Ana shunday doimiy monitoring natijasida shinalarning xizmat muddati 14 foizga oshirilgan.

Sohada zamonaviy texnologiyalarni chuqur o'zlashtirgan mutaxassislar tayyorlash, kadrlarni yangi ish usullari va raqamli yechimlar asosida o'qitish ustuvor vazifalardan biri ekani ko'rsatib o'tildi.

Patent ishlari ko'lamini kengaytirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Fabrikadagi har bir bosqichda qo'llanilayotgan ilmiy-texnologik yechimlarni patentlash, bu borada vakolatli tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, istiqbolli innovatsion yo'nalishlarni belgilab olish zarurligi ta'kidlandi.

Qayd etilganidek, yangi patent bu — yangi texnologiya, yangi ishlab chiqarish yo'nalishi va yangi bozorlar, demak. Mamlakatimizdagi boy xomashyo bazasi jahon bozorlariga chiqish uchun keng

imkoniyatlar yaratayotgani inobatga olinib, 2026-yilda qaysi istiqbolli yo'nalishlarda yana qancha patent olish imkonligi yuzasidan aniq yondashuvlarni ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Olmaliq kon-metallurgiya kombinatiga tashrif doirasida tog'-kon sanoatida amalga oshirilayotgan yirik investitsiya loyihalarini jadallashtirish yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Ta'kidlanganidek, bugungi kunda axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, robototexnika, energetika, elektrotexnika, kimyo va mudofaa sanoati kabi strategik tarmoqlarni jadal rivojlantirish ko'p jihatdan mis, uran, litiy, volfram va boshqa muhim metallar bazasiga tayanadi. Dunyo bozorlarida mazkur resurslarga talab oshib borayotgani, jumladan, mis konsentrat bozorida taqchillik kuchayib, narxlar o'sishi kutilayotgani tog'-kon va metallurgiya sohasidagi loyihalarni tezlashtirishni yanada dolzarb qilib bermoqda.

Shu munosabat bilan 2030-yilga qadar O'zbekistonda oltin ishlab chiqarishni 175 tonnaga, kumushni 500 tonnaga, uranni 15 ming tonnaga, misni 500 ming tonnaga yetkazish bo'yicha belgilangan marralarga erishish uchun barcha imkoniyatlarni to'liq safarbar etish zarurligi qayd etildi.

Bu borada har bir yirik loyihani aniq grafik asosida amalga oshirish, moliyalashtirish, qurilish, logistika, texnologik jihozlash va kadrlar bilan ta'minlash masalalarini o'zaro uyg'unlikda hal qilish muhimligi ko'rsatib o'tildi.

Yig'ilishda, avvalo, Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida amalga oshirilayotgan strategik loyihalarning borishi tanqidiy ko'rib chiqildi. Xususan, 3-mis boyitish fabrikasining keyingi navbatlarini jadallashtirish yuzasidan aniq topshiriqlar berildi.

Shuningdek, mazkur loyihaning texnologik davomi hisoblangan yangi mis eritish zavodini barpo etish masalalari

ham ko'rib chiqildi. Unda texnik-iqtisodiy asosni yakunlash, xorijiy ekspertlarni jalb qilish, qisqa muddatlarda qurilish ishlarini boshlash yuzasidan mas'ullarga aniq vazifalar yuklatildi.

Olmaliq kombinatining istiqboldagi ehtiyotlaridan kelib chiqib, 4-mis boyitish fabrikasi bo'yicha texnik-iqtisodiy asosni ishlab chiqish uchun nufuzli xalqaro kompaniyalarni jalb etish vazifasi alohida ko'rsatib o'tildi. Ushbu hujjatda suv ta'minoti, temir yo'l, energetika infratuzilmasi, ekologik talablar va yuqori samarali texnologiyalarni kompleks qamrab olish lozimligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda joriy yil uchun tarmoqda 90 ta loyiha doirasida 2 milliard 200 million dollar investitsiya jalb qilish, 172,5 ming tonna mis, 120 tonna oltin, 210,5 tonna kumush va 8 ming tonna uran ishlab chiqarish vazifalari belgilangan qayd etildi.

Shu bilan birga, bir qator istiqbolli konlar va obyektlar bo'yicha texnik-iqtisodiy asoslarni tez fursatda yakunlash, ekspertiza jarayonlarini soddalashtirish bo'yicha qabul qilingan yangi qaror imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarurligi ta'kidlandi. Hukumatga ushbu loyihalar doirasidagi tashkiliy va huquqiy masalalarni qisqa muddatda hal qilish topshirildi.

Energetika resurslariga bo'lgan talab ortib borayotgan sharoitda ko'mir qazib chiqarish va uni qayta ishlab loyihalarni jadallashtirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Aholi va sanoat korxonalariga ko'mir yetkazib berish hajmini oshirish yuzasidan vazifalar belgilandi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati faoliyati doirasida "Muruntov" konini kengaytirishning navbatdagi bosqichi, yangi konlarni o'zlashtirish, murakkab rudalardan oltin ajratib olish texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, ayrim yirik loyihalar bo'yicha investorlar bilan hamkorlik mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Metallurgiya yo'nalishida

"O'zmetkombinat"da ishlab chiqarish hajmini oshirish, ichki xomashyo bazasidan samarali foydalanish, raqobatbardosh mahsulot turlarini ko'paytirish, bozor talabiga mos metall listlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish masalalari ko'rib chiqildi. Bu borada xomashyo ta'minoti, mahsulot turlarini diversifikatsiya qilish va yangi bozorlarni o'zlashtirish bo'yicha aniq choralar belgilandi.

Yig'ilishda Texnologik metallar kombinati faoliyatiga ham to'xtalib, sanoat uchun muhim metallar va murakkab qotishmalar ishlab chiqarishni kengaytirish, selen, tellur, kukun metallurgiyasi detallari va boshqa yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha loyihalarni jadallashtirish vazifasi qo'yildi.

Tarmoq korxonalarida tannarxni pasaytirish va xarajatlarni qisqartirish masalalari ham diqqat markazida bo'ldi. Mutasaddilarga bir birlik mahsulot tannarxini qisqartirish, energiya sarfini kamaytirish, resurslardan tejamkor foydalanish va oyma-oy aniq natijalarga erishish bo'yicha manzilli dasturlar ishlab chiqish topshirildi.

Davlat xaridlari va kooperatsiya sohasida mahalliy komponentni kengaytirishga alohida urg'u berildi. Shu bois mutasaddilarga loyihalar va xaridlarda mahalliy komponent ulushini joriy yilda 2 milliard dollardan oshirish bo'yicha aniq ko'rsatkichlar belgilab berildi.

Shuningdek, geologiya-qidiruv ishlarini kuchaytirish, qo'shimcha zaxiralarni aniqlash, yangi kon va investitsiya bloklarini investorlarga taklif qilish, uglevodorodga istiqbolli maydonlarni iqtisodiyotga jalb etish bo'yicha rejalar muhokama qilindi. Bu yo'nalishda joriy yilda oltin, kumush, mis, uran va rux zaxiralari sezilarli oshirish vazifasi qo'yildi.

Yig'ilishda sohada amalga oshirilayotgan 22 milliard dollarlik loyihalar doirasida 38 mingta yangi ish o'rinlari yaratilishi, jumladan, 7,5

ming muhandis va 14 ming o'rta bo'g'in mutaxassislariga ehtiyoj paydo bo'lishi qayd etildi. Shu munosabat bilan sohadagi oliy ta'lim muassasalari va texnikumlar faoliyatini yangi talablar asosida tashkil etish, ta'lim dasturlarini zamonaviy texnologiyalarga moslashtirish, dual ta'limni keng joriy etish, diplom ishlarini bevosita ishlab chiqarish vazifalari bilan bog'lash bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Bundan tashqari, oliygo'haradagi ilmiy tadqiqotlarni kombinatlardagi amaliy texnologik yechimlarga yo'naltirish, ilmiy ishlar natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq etish, talabalar uchun o'quv-mashg'ulot poligonlarini tashkil qilish, sanoat korxonalarida sexlarni amaliyot va tadqiqot uchun moslashtirish vazifalari belgilandi.

Yangi loyihalar doirasidagi dolzarb ilmiy mavzular ro'yxatini ochiq e'lon qilish tizimini yo'lga qo'yish topshirildi. Bu tadqiqotlarda sohadagi 5 ta oliygo'harad bilan bir qatorda texnika yo'nalishidagi barcha davlat, xususiy oliygo'harad va ilmiy tashkilotlar ishtirok etishi mumkin bo'ladi.

Yig'ilish yakunida tog'-kon, metallurgiya, kimyo va neft-gaz kabi bazaviy tarmoqlarda yirik loyihalar ijrosini tizimli nazorat qilish maqsadida Prezident rahbarligida Sanoat kengashi tuzilishi ma'lum qilindi. Ushbu kengash doirasida yirik korxonalarni xalqaro standartlar asosida transformatsiya qilish, tannarx va energiya sarfini kamaytirish, xomashyoni chuqur qayta ishlash, mahalliy kontentni oshirish, barcha jarayonlarni raqamlashtirish, sun'iy intellektni joriy etish, investitsiya va eksportni ko'paytirish bo'yicha oylik ish rejalarini tasdiqlanadi.

Mutasaddi rahbarlarga ushbu rejalar ijrosini har oy joylarga chiqqan holda korxonabay tanqidiy muhokama qilish, mavjud masalalarni tezkor hal etish va har chorak yakunlari bo'yicha hisobot kiritib borish topshirildi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
Abdulaziz RUSTAMOV,

TINCH VA BARQAROR JAMIYAT BUNYODKORLARI

Ayniqsa, mamlakatimizda aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash, manzilli yordam tizimini takomillashtirish hamda zamonaviy va samarali ijtimoiy himoya mexanizmlarini tatbiq etish borasida ishlar izchil amalga oshirilayotgani aytiladi.

Ta'kidlanganidek, Garvard universiteti qoshidagi mazkur Kokus bugungi kunda mintaqa davlatlari, jumladan, O'zbekiston va AQSH o'rtasida ta'lim, ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilayotgan muhim yoshlar platformasiga aylani bormoqda. U

turli mamlakatlardan kelgan yoshlarni birlashtirib, o'zaro muloqot va anglashuvni rivojlantirish orqali tinch va barqaror jamiyat barpo etishga hissa qo'shmoqda.

Talabalar O'zbekistonning ochiq va pragmatik tashqi siyosatiga katta qiziqish bildirib, bu yo'nalishdagi amaliy tajriba bilan yaqindan tanishish istagini bildirdi.

Uchrashuv chog'ida Tanzila Norboeva mamlakatda yoshlar siyosatiga alohida e'tibor qaratilayotganini ta'kidlab, ularning tashabbus va g'oyalarni qo'llab-quvvatlash, zamonaviy bilim hamda ko'nikmalarga ega bo'lishi uchun

zarur sharoitlar yaratish davlatimiz siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri ekanini aytdi. Shu bilan birga, yoshlarning global ilmiy hamjamiyatga integratsiyalashuvini ta'minlash, innovatsion g'oyalarni rag'batlantirish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish muhim vazifalar sifatida belgilanganini ham e'tirof etdi.

O'z navbatida, Shahnoza Mirziyoyeva har qanday mamlakat istiqbolini yoshlarsiz tasavvur qilib bo'lmagligini ta'kidladi.

— Bugungi kunda dunyo shiddat bilan o'zgarimoqda, hozir qabul qilinayotgan qarorlar esa bevosita kelgusi avlod hayotiga ham daxldor.

Shu bois yoshlarning fikrlari, tashabbuslari va ayniqsa, ularni o'ylantirayotgan masalalarga quloq tutish g'oyat muhimdir. Bu yosh avlodning kelajak haqidagi tasavvurlari hamda ushbu jarayonda mamlakatimiz qanday o'rin egallashi mumkinligini anglash uchun qulay imkoniyatdir, — dedi u.

Tadbir davomida tajriba almashish, yangi tashabbuslarni muhokama qilish hamda kelgusida qo'shma ta'lim va ilmiy loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlari yuzasidan taklif va tashabbuslar ilgari surildi.

Oliy Majlis Senati
Axborot xizmati.

O'rganish

MUTASADDILAR FAOLIYATI TAHLIL QILINMOQDA

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi Orziqul Qozixonova boshchiligidagi ishchi guruh "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning Toshkent shahridagi ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar holatini o'rganmoqda.

Tahlillarga ko'ra, 2026-yil yanvar-fevral oylarida poytaxtda himoya orderi olgan shaxslarning umumiy soni 886 nafarni tashkil etgan.

2025-yildagiga nisbatan zo'rvonlik sodir qilganlar 20,1 foizga oshgan, jabrlangan xotin-qizlar soni 24,7 foizga ko'paygan.

O'tgan yilning mos davrida tuzatish dasturiga yo'naltirilgan shaxslar soni 10 nafarni tashkil etgan bo'lsa, joriy yil bu ko'rsatkich nolga teng.

Ishchi guruh tomonidan Toshkent

shahrida joriy yilning o'tgan davrida eng ko'p himoya orderi berilgan Shayxontohur, Uchtepa, Yakkasaroy tumanlaridagi mutasaddilar faoliyati joylarga chiqib o'rganilyapti.

Bundan tashqari, shoshilinch qabul bo'limi mavjud shifoxonalarda birlamchi ko'mak xonalari, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari, Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi faoliyati ham tahlil qilinmoqda.

Ishchi guruh tomonidan o'rganish ishlari davom etmoqda.

HARBIY TA'LIM FAKULTETLARIDA O'QUV SIFATI QANDAY?

Oliy Majlis Senatining 2026-yilgi ish rejasiga muvofiq Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi tomonidan "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonunning rezervdagi hamda xaziradagi ofitserlarni tayyorlashga oid qismining Toshkent shahridagi oliy ta'lim muassasalarida iro etilishi holati o'rganildi.

Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi Qutbiddin Burhonov boshchiligidagi Mudofaa, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Harbiy prokuratura vakillari, shuningdek, ekspertlar ishtirokida tuzilgan ishchi guruh a'zolari Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Harbiy tayyorgarlik o'quv markaziga hamda Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetining harbiy ta'lim fakultetiga tashrif buyurishib, rezervdagi va xaziradagi ofitserlarni tayyorlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Bunda oliy ta'lim muassasalarida talabalarni harbiy tayyorgarlikka saralash tadbirlarining tashkil etilishi, qurol-aslahalar va harbiy texnikalardan foydalanishni o'rgatish, ularning jismoniy

tayyorgarligini oshirish, taktik tayyorgarlik, muhandislik, harbiy topografiya va ommaviy qirg'in qurollaridan himoyalash mashg'ulotlarining o'tkazilishi bo'yicha olib borilayotgan ishlarga e'tibor qaratildi.

Bundan tashqari, ishchi guruh a'zolari oliy ta'lim tashkilotlarida harbiy ta'lim bo'linmalari shtat jadvalini shakllantirishda pedagogik lavozimlar va harbiy shtat birliklarining uzviy ta'minlanganligi, o'quv moddiy-texnik bazasining to'liq jihozlanganligi bilan bog'liq masalalarga ham alohida urg'u berishdi.

O'rganish jarayonida harbiy tayyorgarlikni sifatli tashkillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, nazariy bilimlarni amaliyotda mustahkamlash zarurligi yuzasidan tegishli taklif va tavsiyalar berildi.

"Xalq so'zi".

Monitoring


O'zbekistonlik senator xalqaro kuzatuvchilar missiyasi tarkibida ish olib bordi

Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi Anvar To'ychiev joriy yilning 15-mart kuni yangi tahrirdagi Qozog'iston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish bo'yicha o'tkazilgan referendumda MDH Parlamentlararo Assambleyasining xalqaro kuzatuvchilar missiyasi tarkibida ishtirok etdi.

145 nafar deputatdan tashkil topadigan va yangi, kengaytirilgan vakolatlariga ega bir palatali parlament — Qurultoyni shakllantirish Konstitutsiyasi loyihasining asosiy yangiliklaridan biridir. Unda proporsional saylov tizimidan foydalaniladi, deputatlar vakolatining muddati esa 5 yildan iborat bo'ladi.

Loyihaga kiritilgan yangiliklardan biri — Vitse-prezident institutining ta'sis etilishi va umummilliy muloqotning yangi platformasi — Qozog'iston Xalq Kengashi tashkil qilinishidir.

Senator respublika referendumiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish



jarayonini Ostona shahri va Akmola viloyatida kuzatdi hamda saylov uchastkalariga tashrif buyurdi.

Referendum doirasida Qozog'iston Senati Raisi Maulen Ashimbayev va Qozog'iston Konstitutsiyaviy sudi raisi Elvira Azimova

bilan bo'lib o'tgan uchrashuvlarda yangi Konstitutsiyani qabul qilish bo'yicha umumxalq referendumiga tayyorgarlik ko'rish jarayoni hamda uning mamlakat siyosiy tizimi va davlat institutlarini rivojlantirishdagi ahamiyati haqida fikrlashildi.

Kelishuv

QONUN IJODKORLIGI JARAYONIDA SAMARALI MEXANIZM

Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi hamda Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolandi.

Ushbu hujjat Prezidentimizning 2026-yil 16-fevraldagi tegishli farmoni hamda "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan vazifalarni hayotga tatbiq qilishni ko'zda tutadi.

Ya'ni hamkorlikning asosiy maqsadi qonun ijodkorligi jarayoniga ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va tahlil markazlarini faol jalb etishdan iborat. Asosiy e'tiborni qonun loyihalarini chuqur ilmiy tahlil qilish orqali ularning sifati va hayotiylikini oshirish, qonunchilik jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo'yicha maslahat yordami ko'rsatish, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasiga qaratilgan qo'shma nazorat-tahlil tadbirlarini o'tkazishga qaratish nazarda tutilgan.

Ta'kidlanganidek, mazkur hamkorlik qonun ijodkorligi jarayonini takomillashtirishga xizmat qiluvchi doimiy muloqot maydoniga aylandi.

Endilikda qo'mita huzuridagi ekspertlar guruhi tarkibiga yetakchi mutaxassis va huquqshunos olimlar keng jalb etiladi, institut tinglovchilarining esa Senatda amaliyot o'tishi yo'lga qo'yiladi.

"Xalq so'zi".

Shukuh

Har qalbdada Navro'z!

Bir necha kun avval Prezidentimizning Navro'z bayramini nishonlash to'g'risidagi qarori e'lon qilindi va bayramni yuqori darajada o'tkazish bo'yicha qator muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilab berildi.

Ayniqsa, undagi Navro'z bayramining shiori e'tiborni tortadi: "Navro'zni ulug'lash – insonni ulug'lashdir". Qariyb o'n yildirki, "Inson qadri", "Insonni ulug'lash" tamoyillari asosida qancha ezgu ishlar amalga oshirilayotganining guvohi bo'lib turibmiz. Lekin Navro'zni ulug'lashning inson qadri ulug'lash bilan qanday bog'liqligi bor? Shu savolni o'zingiz berar ekanman, maktabda faoliyat boshlagan ilk kunlardagi voqealar esimga tushdi.

"Birorta joyda, ayniqsa, maktablarda Navro'z nishonlanmasin, sumalak pishirilmasin – bu bayram emas, balki eskilik sarqiti, diniy aqida, agar kimda-kim buyruqni ijro etmasa, javobgarlikka tortiladi" degan topshiriq keldi. Ma'naviyatchi sifatida nima qilarimni bilmayman, bolalar, o'qituvchilar, jamoa bayramga katta tayyorgarlik ko'rganmiz, axir! Nihoyat, bayram "Navbahor" nomi ostida o'tkaziladigan bo'ldi. Va bu holat bir necha yillar davom etdi.

Maqsadi Navro'zning Navbahor deb nomlanishida ham emas, balki inson sha'ni, millat qadri toptash, milliy qadriyatlarini yo'qqa chiqarish bo'lgan mana shunday dol'ali kunlar ham o'tdi. Mustaqillik deb atalmish ne'mat bilan birga qadimiy urf-odatlar, qadriyatlarini o'zida mujassam etgan Navro'z ham o'z o'rnini topdi. Katta bir elning, muazzam bir davlatning rasmiy bayrami sifatida e'tirof etildi.

Bugun bahor epkini bilan kirib kelayotgan bayram shukuh xalqimizning qadim qadriyatlarini e'zozlanayotganini, bu obod yurtda har bir inson qadri ulug' ekanini yana bir bor namoyon qilmoqda.

Bahor o'zining yashil libosi bilan shahar va qishloqlarimiz chiroyiga chiroq qo'shmoqda. Har bir go'shada obodlik, ekin-tikin ishlari amalga oshirilib, xalqimiz uchun katta sayillar, bayram tadbirlari tashkil etilyapti. Doshqozonlarda qaynayotgan sumalaklar, xayru saxovat ishlari shundan darak beryapti. Bundan tashqari, saxovatpesha yurtdoshlarimiz tomonidan "O'ng qo'ling berganini chap qo'ling bilmasin" tamoyili asosida qanchadan-qancha o'ksik dillarga, ilikuzdi mahali o'zgina qiyinchilikka duch kelgan oilalarga yordamlar ko'rsatilyaptiki, bularning barchasiga tashrifi bilan ellarimizni, dillarimizni quvontirgan Navro'zi olam sabab!

Mana shu emasmi "Navro'zni ulug'lash – insonni ulug'lashdir" degan shiorning asl mohiyati?!

Navro'z – yangi kun, bahor – yangilanish faslida Yangi O'zbekistonda bo'layotgan o'zgarishlar, yangi yutuqlar, xayri ishlar yanada bardavom. Ana shunday fayzli va shukuhli kunlarning besovita ishtirokchisi bo'lganimiz uchun shukronalar aytishimiz joiz.

Bu yilgi bahor ayyomining Hayit bayrami bilan ketma-ket kelishining o'z hikmati bor, nazarimda. Chunki bunday qo'shaloq bayramlar avvallari ham nishonlangan va bu yaxshilik alohida. Xususan, "Bobur"ning 1503-1504-yil voqealari bayonida hazrati Bobur shu munosabat bilan g'azal bitarkan Hayit bilan Navro'z bayramining yaqin kelganini yaxshilik alohida sifatida alohida ta'kidlaydi.

Qo'l ushlab, yetaklashib kelayotgan ana shunday ayyomlarimiz xalqimiz uchun ham xayri va barokatli bo'lsin!

Pokiza AHMEDJANOVA,
Oliy Majlis Senati a'zosi, xalq deputatlar
Sirdaryo viloyati Kengashi raisi.

AHOLI HUQUQ VA MANFAATLARINING MUSTAHKAM ASOSI

Deputatlar xalqimiz og'irini yengil qilish, ularni o'ylantirayotgan masalalarga takomillashtirish bo'yicha o'z fikr-mulohazalari, taklif va tavsiyalarini berdi.

Deputatlar qonun loyihasining qabul qilinishi sanoat xavfsizligiga oid qonunchilikni yanada takomillashtirishga hissa qo'shishini e'tiborga olib, uni qo'llab-quvvatlad.

"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Keyingi yillarda mikroqarzlarning ommabopligi oshganligi va ayrim kredit tashkilotlari tomonidan agressiv kreditlash amaliyoti qo'llanilayotgan natijasida aholining qarz yukli kredit mahsulotlari hisobidan keskin o'sib borayotganini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, mikroqarzlarni reklama qilish hamda marketing kontentida iste'molchilarning asosiy e'tibori bunday kredit mahsulotlarini olish kelgusida yuqori moliyaviy majburiyat

va ahamiyatiga alohida to'xtalib, partiya maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda loyihani yanada takomillashtirish bo'yicha o'z fikr-mulohazalari, taklif va tavsiyalarini berdi.

Deputatlar qonun loyihasining qabul qilinishi sanoat xavfsizligiga oid qonunchilikni yanada takomillashtirishga hissa qo'shishini e'tiborga olib, uni qo'llab-quvvatlad.

"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Keyingi yillarda mikroqarzlarning ommabopligi oshganligi va ayrim kredit tashkilotlari tomonidan agressiv kreditlash amaliyoti qo'llanilayotgan natijasida aholining qarz yukli kredit mahsulotlari hisobidan keskin o'sib borayotganini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, mikroqarzlarni reklama qilish hamda marketing kontentida iste'molchilarning asosiy e'tibori bunday kredit mahsulotlarini olish kelgusida yuqori moliyaviy majburiyat

vaqtning kamida 10 foizini tashkil qilishi lozimligi belgilanmoqda.

Fraksiya a'zosi Farhod Zayniyev qonun loyihasiga munosabat bildirib, deputatlarni uni bir ovozdan qo'llab-quvvatlashga chaqirdi. Deputatning qayd etishicha, muammoli kreditlar tobora oshib bormoqda. Qonunchilikka kiritilayotgan yangi norma aholining kredit bilan bog'liq moliyaviy xatarlar haqida xabardorligini oshirishga, qarz majburiyatlarini olishga nisbatan yanada og'ir yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

Muhokamadan so'ng qonun loyihasi qo'llab-quvvatlandi.

"Adolat" SDP fraksiyasi yig'ilishida Prezidentimiz raisligida aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirishga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor taqdimotida ilgari surilgan tashabbuslarning ahamiyati haqida so'z yuritildi.

Deputatlar, ayniqsa, alimant to'lovchilarni kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash orqali murojaatlarni ikki baravarga kamaytirish, tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma olish kabi eng zarur hujjatlarni rasmiylashtirishni soddalashtirish bo'yicha belgilab berilgan vazifalarni qo'llab-quvvatlad.

Yig'ilishda kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, madaniyat va san'atni ravnag toptirish, aholi va yurtimizga tashrif buyuruvchi turistlarning madaniy dam olishlariga keng shart-sharoitlar yaratish hamda sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ko'lamli ishlar amalga oshirilmog'ya.

Ushbu qonun loyihasi ham kreativ iqtisodiyot sohasini tizimli rivojlantirish, ijodkorlar va kreativ tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda sohada innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga qaratilgan.

Qonun loyihasi fraksiyamiz yig'ilishida atroflicha muhokama qilinib, uni yanada takomillashtirish bo'yicha qator takliflar berildi, – deydi fraksiya a'zosi Behzod To'xtamurodov. – Unda nazarda tutilayotgan normalar madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish, xususan, mamlakatimiz aholisi va xorijdan tashrif buyuruvchi sayyohlar uchun o'tkazilayotgan madaniy tadbirlar yuqori saviyada tashkil etilishiga xizmat qiladi.

Muhokamadan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, qonun loyihasida kreativ iqtisodiyot subyektlarini



qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish, ular uchun qulay tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy sharoitlar yaratish nazarda tutilgan.

Muhokama jarayonida deputatlar qator savol va takliflarni o'rtaga tashlashdi. Xususan, deputat Sayyora Imomova qonun loyihasida ayrim xorijiy kontragentlarga soliq imtiyozlari berilishiga oid normalar yuzasidan fikr bildirdi. Uning ta'kidlashicha, milliy madaniyat va qadriyatlarini targ'ib etishda mahalliy mutaxassislar imkoniyatlaridan kengroq foydalanish muhim.

Qonun tashabbuskorlari mazkur norma xorijiy mutaxassislarga ustuvorlik berishni anglatmasligini ta'kidladi. Izohlanishicha, ayrim hollarda zamonaviy texnologiya va tajribalarni qo'llash maqsadida xorijiy mutaxassislar ishtirokida loyihalar amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, bunday imtiyozlar ikki tomonlama soliqqa tortish holatlarining oldini olishga ham xizmat qiladi.

Yig'ilishda yana qator masalalar yuzasidan ham fikr almashildi. Xususan, fraksiya a'zosi Shokirjon Ahmedov davlat xaridlari to'g'risidagi qonunga kiritilayotgan o'zgartirishlar yuzasidan asoslantirishlar yetarli darajada keltirilganiga e'tibor qaratdi. U bunday normalar qabul qilingan taqdirda, ularning aniq mezonlari va cheklavlarini belgilash zarurligini ta'kidladi.

Muhokama davomida qonun tashabbuskorlari loyihadagi mavjud ayrim texnik xatoliklarni ischchi guruh doirasida bartaraf etishni ma'lum qildi.

Fraksiya a'zosi Sharofiddin Nazarov mazkur masala yuzasidan fikr bildirdi. Uning ta'kidlashicha, madaniyat va san'at sohasiga oid ayrim xalqaro tadbirlarni tashkil etishda to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish amaliyoti avval ham mavjud bo'lgan. Va bu kabi tadbirlarda faqat narx mezoniga asoslangan ochiq tanlov har doim ham samarali natija bermasligi mumkin.

Muhokamadan so'ng qonun

loyihasi qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida xavfli ishlab chiqarish obyektlari va potensial xavfli obyektlarning sanoat xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, qonun loyihasi bilan xavfli ishlab chiqarish obyektlarida sanoat xavfsizligi boshqaruv tizimining auditini joriy qilish taklif etilmog'ya. Shuningdek, qonun loyihasida xavfli ishlab chiqarish obyektlari yoki potensial xavfli obyektlarda sanoat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish ustidan jamoatchilik nazorati instituti mustahkamlanmog'ya.

Qonun loyihasida belgilanayotgan normalar sanoat xavfsizligiga oid qonunchilikni yanada takomillashtirishga, xavfli ishlab chiqarish obyektlari bilan bog'liq faoliyatni amalga oshiruvchi subyektlarning mas'uliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi, – deydi fraksiya a'zosi Oybek Rahimov.

Qiz'in munozaralardan so'ng qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Kun tartibidagi navbatdagi masala – iste'molchilarni moliyaviy xatarlardan himoya qilish hamda kredit va mikrocredit xizmatlari reklamasini tartibga solishga qaratilgan qonun loyihasi atroflicha ko'rib chiqildi.

Unda moliyaviy xizmatlar, xususan, mikrocreditlar reklamasini yanada tartibga solish, iste'molchilarni moliyaviy xatarlar to'g'risida oldindan ogohlantirishga qaratilgan qo'shimcha normalar kiritish nazarda tutilmog'ya.

Muhokama davomida fraksiya a'zolari tomonidan ayrim normalar yuzasidan fikr-mulohazalar hamda takliflar bildirildi va deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Yig'ilishda kun tartibiga kiritilgan masalalar atroflicha ko'rib chiqilib, tegishli qaror qabul qilindi.

"Xalq so'zi".



vazifalarimizdan biriga aylanishi kerak. Yig'ilishda ko'rib chiqilgan navbatdagi masala – xavfli ishlab chiqarish obyektlari va potensial xavfli obyektlarning sanoat xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qonun loyihasi bo'ldi.

Unda xavfli ishlab chiqarish obyektlarida sanoat xavfsizligi boshqaruv tizimining auditini joriy qilish taklif etilmog'ya.

Shuningdek, loyihadagi sug'urtaga oid normalarni yanada takomillashtirish nazarda tutilyapti. Xususan, xavfli ishlab chiqarish obyektlarida avariya sodir bo'lgan taqdirda fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash bo'yicha sug'urta summalarining eng kam miqdorlari belgilanishi taklif etilmog'ya.

Muhokama davomida fraksiya a'zolari Raxmatillo Shukurov, Baxitbay Aldamuratov va boshqalar qonun loyihasining mazmun-mohiyati

keltirib chiqarishi mumkinligiga emas, balki uni tez va oson olish imkoniyatiga qaratilmog'ya.

Bundan tashqari, kredit mahsulotlari reklamasida iste'molchilarga moliyaviy holat va to'lov qobiliyatini to'g'ri baholash, mazkur xizmatlardan foydalanish va qarz majburiyatlarini bajarmaslik moliyaviy xatarlarga olib kelishi mumkinligi haqida ogohlantirish berish hamda qonun hujjatlarini o'zaro muvofiqlashtirish zarurati yuzaga kelmog'ya.

Ushbu qonun loyihasi bilan "Reklama to'g'risida"gi Qonunga aholiga taklif etiladigan kreditlar, jumladan, mikroqarzlarni reklamasida qarz majburiyatlarini bajarmaslik moliyaviy xatarlarni keltirib chiqarishi mumkinligi haqida majburiy ogohlantiruvchi matn joylashtirilishi shartligini nazarda tutuvchi qo'shimcha kiritilayotir. Bunda ogohlantirish reklama maydoni yoki

Aks sado

SUV RESURSLARINI TEJASHGA ZAMONAVIY YONDASHUV

Tahllarga ko'ra, dunyo aholisi sonining ortishi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining kengayishi hamda sanoat tarmoqlarining rivojlanishi suvga bo'lgan talabni yildan-yilga oshirmog'ya. Transchegaraviy daryolardan foydalanish, suv resurslarini adolatli taqsimlash va ularni muhofaza qilish masalalari ham xalqaro miqyosdagi muhim vazifalardan biriga aylangan.

Suv resurslaridan oqilona foydalanish, isrofgarchiliklarga yo'l qo'ymaslik hamda sohada tejamkor innovatsiyalarni qo'llash esa ayni zarurat. Bu borada mamlakatimizda tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan o'z samaralarini bermog'ya.

Xususan, davlatimiz rahbarining 2026-yil 5-martdagi "Sug'orishda suv yo'qotishlarini kamaytirish va suv tanqisligining oldini olish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori suv islohotlariga qaratilgan ishlarining mantiqiy davomi bo'ldi. Bu suv xo'jaligi tizimini yanada takomillashtirish, sug'orish infratuzilmasini modernizatsiyalash va suv resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan muhim dasturiy hujjat sifatida alohida ahamiyatga ega.

Mazkur qarorda mamlakatimizdagi mavjud suv resurslaridan yanada samarali foydalanish, sug'orish tizimlaridagi yo'qotishlarni kamaytirish hamda tanqislikning ehtimoliy salbiy oqibatlarini yumshatishga qaratilgan aniq vazifalar belgilab berildi.

Jumladan, suv xo'jaligi tizimida suv yo'qotilishi yuqori bo'lgan 389 kilometr kanallarni rekonstruksiya qilish va

Bu esa qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosildorligini oshirish, eksportbop mahsulotlar yetishtirishni kengaytirish va agrar tarmoqning iqtisodiy salohiyatini yanada mustahkamlashga olib keladi.

Raqamlarga e'tibor bering: ushbu hujjatga muvofiq, respublika byudjeti hisobidan 600 mlrd. so'm mablag' ajratilishi belgilangan bo'lib, bundan 480 mlrd. so'mi kanallar va sug'orish tarmoqlarini betonlashtirish ishlariga, 120 mlrd. so'mi esa suv tanqisligining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga yo'naltiriladi.

Shu bilan birga, qarorda mahalliy va xorijiy tajribalarni o'rganish asosida kuz-qish mavsumida foydalanilmaydigan suv zaxiralardan hamda yog'ingarchilik suvlaridan samarali foydalanish bo'yicha yangi takliflar ishlab chiqilishi ham nazarda tutilgan. Bunday yondashuv suv resurslarini tejash va ulardan yanada samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Umuman, amalga oshirilayotgan bunday islohotlar pirovard natijada qishloq xo'jaligi samaradorligini ko'tarish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, suv resurslarini asrash bilan birga, mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlaydi.

Ravshan MAMUTOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasining Agrar va suv xo'jaligi
masalalari qo'mitasi raisi.

MUHOJAAATLAR BILAN ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI

Prezidentimiz raisligida aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida mazkur yo'nalishdagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etmog'ya. Unda ayrim hokimlar va mutasaddi rahbarlar faoliyatini tanqid qilindi, ayni chog'da ijobiy natijalar ham aytiladi.

Ammo ichki ishlar organlari, majburiy ijro byurosi, energetika, bandlik va sog'liqli saqlash sohalar bo'yicha murojaatlar ko'pligicha saqlanib qolayotgani ham ayni haqiqat. Bu holat ushbu sohalarida xizmat ko'rsatish sifatini yanada oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Jumladan, alohida e'tibor qaratilgan masala – alimant to'lovlarini bog'liq murojaatlarni olaylik. O'tgan yili bu borada 70 mingga yaqin murojaatlar kelib tushgan. Muammoning asosiy sabablaridan biri alimant to'lovchilarning rasmiy daromad mavjud emasligi bilan bog'liq. Shu munosabat bilan mahalliy hokimliklar, bandlik bo'limlari va mahalla institutlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali bu muammoni hal etish mumkinligi ta'kidlandi.

Qolaversa, elektr ta'minoti, yo'llar, suv va kanalizatsiya tizimi bilan bog'liq muammolar bo'yicha 2025-yilda 100 mingdan ko'p murojaatlar kelib tushgan. Bu muammolarni hal qilish maqsadida joriy yilda 20 trln. so'm mablag' ajratilgan. Mazkur mablag'larni, avvalo, eng ko'p



murojaat tushayotgan mahallalarga yo'naltirish zarurligi ta'kidlandi.

Aynan ushbu yo'nalishda biz, parlament va mahalliy Kengash deputatlarining o'rni muhim sanaladi. Sababi, saylovchilar tomonidan bildirilgan murojaatlarni chuqur tahlil qilgan holda, davlat rahbari aytganidek, mablag'larni, avvalo, zarur hududlarga yo'naltirish, ish sifati ustidan deputatlik va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish zarur.

Prezidentimiz tomonidan murojaatlar bilan ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha muhim tashabbuslar ilgari surildi. Endilikda Xalq qabulxonalariga faqatgina murojaat qabul qiluvchi idora emas, balki hududlardagi muammolarni tahlil etadigan va ularning kelib chiqish

sabablarini aniqlaydigan markazga aylantiriladi. Ushbu tashabbuslar mamlakatimizda aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Eng muhimi, muammolarni faqatgina qabul qilish emas, balki ularning kelib chiqish sabablarini aniqlab, tizimli yechim topish imkonini beradi.

Mazkur yo'nalishda qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish ham dolzarb vazifa. Chunki fuqarolar murojaatlarini ko'rib chiqish tartibi, davlat organlarining mas'uliyati va javobgarligini belgilash huquqiy jihatdan mustahkamlanishi lozim. Ana shunda oddiy odamlar uchun "davlat idorasi – muammolar yechiladigan joy"ga aylanadi. Fuqarolar murojaatlari shunchaki qog'ozda qolib ketmasligini va quruq va'da bilan qaytarilmasligini o'z hayotida his qiladi.

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan yangi yondashuv muammolarni faqat qayd etish yoki vaqtincha yechim berish emas, balki ularning ildiziga yetib borib, sabablarini bartaraf qilishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir. Bu esa davlat boshqaruvida mas'uliyat, ochiqlik va xalq dardiga daxldorlik tamoyillarini yanada mustahkamlaydi.

Gulnora ABDUVOHIDOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
deputati.

“MENING BIR BOG‘IM BORDIR: SAMARQANDDAN BUXOROGACHA...”



Hali oddiy amirlardan biri maqomida, qaysar va izzatlab beklar boshini goh qovushtirishga erishib, goh qovushtira olmay Turkiston ko‘llarida ot choptirib yurilgan pallalar... Sohibqiron mash‘um “Loy jangi”dan (milodiy 1365-yil bahori) keyin Amir Husaynga o‘xshab jonimni saqlay deb, yurtini tashlab ketmadi, balki milodiy 1365-1366-yillar qishida Qarshi qal‘asini qurishga kirishdi va poyoniga yetkazdi. Bu uning oddiy bir amir bo‘lgan esa-da, o‘zini butun mamlakat uchun mas‘ul sezganini ko‘rsatadi.

Ma‘lumki, Samarqand mustahkam devorlar bilan o‘ralmagan edi. Shahar saltanat markazi qilib belgilangandan keyin Amir Temur unga poytaxt ko‘rku salobatini berish, obod maskanga aylantirish yo‘lida katta harakat boshladi. Bu harakat Sohibqironning butun umri davomida bir lahza tingani yo‘q, desak, mubolag‘a bo‘lmas.

Dastavval ko‘chalar orasta qilindi, ko‘ksaroy bunyod etildi. “Samarqand arkida Temurbek ulug‘ bir ko‘shk solibdur, to‘rt oshyonliq, – deb yozadi Bobur Mirzo. – Ko‘ksaroyga mavsum va mashhur va oliy imoratdur”. Milodiy 1371-yilda olti darvoza tiklandi, shaharsozlik rivojlandi, shahar mustahkam qal‘a devorlari bilan o‘rab olindi.

Sohibqiron Samarqandni dunyoning eng oldi shahariga aylantirmoqchi edi, bunga erishdi ham. Buni ta‘kidlash uchun shahar atrofida Damashq, Bag‘dod, Misr, Sheroz, Sultoniya kabi mashhur shaharlar nomlari bilan atalgan, bog‘-rog‘larga ko‘milgan katta-katta obod qishloqlar barpo qildirdi. Bu harakatning zamirida dunyoning nomi chiqqan shaharlari Samarqand oldida bir qishloqdir, degan ma‘no yetardi.

Samarqand atrofida yaratilgan bog‘larning (ulami o‘n beshta sanashadi, fikrimizcha, undan ham ko‘p) ta‘rifi esa o‘zgacha. Janubda, Siyobning o‘ng qirg‘og‘ida bo‘y ko‘rsatgan “Bog‘i Chinor”, kunbotarda, milodiy 1378-yilda Tabrizning oq va toza marmaridan ishlangan qasri, uyulib, shibbalangan tuproq ustida tiklangan “Bog‘i Bihisht”, shimolda – Zarafshon bo‘yida qad ko‘targan “Bog‘i Baland”, Samarqanddan olti kilometr kunchiqishda O‘rta Po‘latchi qishlog‘iga yaqin Xonchorbog‘ degan joyda o‘n ikkita bog‘ o‘rta bunyod etilgan “Bog‘i Dilkusho” (Amir Temur Ispaniya elchisi Klavixo bilan 1404-yil sentabr boshlarida shu bog‘da uchrashgandi). Zahiriddin Muhammad Boburning guvohlik berishicha, bu bog‘dan Samarqandning Feruza darvozasigacha terak ekilib, so‘lim xiyobon qilingan. Bog‘larni sanashda davom etamiz.

ham, ustakor(quruvchi)larda ham lahza tinim yo‘q. “Beklar ihtimom qilib (g‘ayrat ko‘rgizib), kecha-kunduz ishlatur edilar. Sohibqiron (davlat ishlari bilan qattiq band bo‘lishlariga qaramasdan! – Ta‘kid bizniki – M.A.) bir oy yarim o‘zi turib jahd qilur edilar...”, deb hayratlanib yozadi tarixchi.

O‘sha yili kuzda “Konigilning bir yonida bog‘i tarh solsunlar!” degan oliy farmon qabul qilindi. Kichik malika, sohibjamol To‘kalxonimga atab oliy bir ko‘shk, ulug‘vor ayvon bunyod etadilar. “Murabba” tarhi soldilarkim, – deb yozadi Yazdiy bog‘ haqida, – har yoni ming besh yuz qari erdi (ya‘ni, yetti yuz ellik metr – M.A.) va har bir tomida bir darvoza qo‘yildi va oliy toqilar bog‘ladilar va koshin bila zebu ziyarat berdilar... Ko‘shkning toqu ravoqlari naqshinkor va sirkor g‘ishtlar bilan pardoz topdi. Bog‘ning to‘rt burchagida... serhasham shiypnolar qurildi...”

Muarrixlar so‘zlariga qaraganda, bog‘ jannatday oromijon, Eram bog‘idek dilkusho ekan. “Amir Sohibqiron u bog‘ va saroylarning qurilishi bilan bir oyni (!) o‘tkazdi...”, deydi Nizomiddin Shomiy. Hayratda qoladigan joyi shundaki, saltanat yumushlari bilan nihoyatda band bo‘lgan Amir Temurdan davlat arbobining bitta bog‘ barpo etishga bir oy vaqtini sarflashi, shunga fursat topa olganidir. Xuddi o‘sha yili “Bog‘i Shimol” qurilishida ham “Sohibqiron bir oy yarim o‘zi turib jahd etar edilar” (Yazdiyning e‘tirofi).

Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida Jome masjidi qurilishiga to‘xtalib, shunday yozgan edi: “Sohibqiron g‘oyat ihtimomidinkim (e‘tibor berganidan, diqqat qilganidan), masjid ishida taallul (bahona, sustlashish) bo‘lmag‘ay (deb), o‘zi har kun kelib ishlagonlar boshig‘a turib, ihtimom qilur erdi. Va so‘rar erdi...”

Demak, bog‘ barpo qilish, masjid yo boshqa bino qurish davlat ahamiyatidagi yumushlardan kam hisoblanmagan, balki ayni saltanat yumushi sanalgani aniq.

Tarixchilar ma‘lumotlariga qaraganda, Samarqand atrofidagi bu bog‘lar eshigi davlat arboblardan tortib, to xorijiy mamlakatlari elchilarigacha (masalan, ispan elchisi Lui Gonsales de Klavixo), hunarmandu tolibi ilmlar, keng ommaga ochiq edi, har kim bog‘larga emin-erkin kirib rohatu farog‘atda sayr etardi... Bu o‘sha zamonlarda kam uchraydigan diqqatga sazovor hodisalardan va albatta, insonparvarlikning yuksak ko‘rinishlaridandir.

Amir Temurning bunyodkorlikka, umuman, obodonchilikka katta ahamiyat berganini uning mashhur “Tuzuklar”idan

olam ma‘nolar yashirin. Bunyodkorlik saltanatda urfga aylanib, uning hayotbaxsh ta‘siri nafaqat Sohibqiron, balki amirzodalar, malikalik, ayonlar o‘rtasida ham keng tarqaldi. Bu hayotbaxsh urfdan ruhlangan Qutlug‘ Turkon oqa, Bibixonim, Tuman oqa, Gavharshodbegim, Milkat oqa (Shohruh Mirzo xotini) kabi va boshqa malikalarning o‘z mablag‘lari hisobiga bunyod etgan shifoxonayu hammom, xonaqohu madrasa, masjidu rabotlari haqida tarixiy kitoblarda batafsil yoritilgan.

Sohibqiron yoshligidan aziz-avliyolarga izzatu ikrom ko‘rgizib kelardi. Uning Sharox Shamsiddin Kulol, Shayx Zayniddin Abu Bakr Toybodiy, Mir Sayyid Baraka singari zotlarga hurmat-e‘tibori ma‘lum. Tabarruk

deb atalardi.

O‘xshash hodisa milodiy 1398-yil bahorida ham ro‘y berdi. Sohibqiron Samarqanddan Kesh tomon yo‘lga chiqdi. Yo‘l tog‘dan oshib tushar edi. Yetti yig‘och yo‘l yurganlaridan so‘ng to‘xtadilar. Sohibqiron atrofida nazar solib ko‘rdiki, tog‘ning tepasi juda xushmanzara, bahavo joy ekan, tog‘ning og‘zidan sharqirab katta suv oqib chiqib turibdi... “Imoratga loyiq yer ekan!”, deb o‘yladi Amir Temur. “Shu yerda bog‘ qilsunlar, bu suvni boqqa olib kirsunlar, bog‘ning ichida qasr solsunlar!” degan oliy farmon berildi... Oqibatda, paytlar kelib, Ibn Arabshoh “yo‘qolib qolgan ot faqat olti oydan keyingina topilirdi”, deb ta‘riflagan “Taxti Qarocha” bog‘i barpo etildi...

Yo‘lda yana Arabon mavzeida bir rabot soldiradi... Nizomiddin Shomiy Tabriz shahrini

qurildi (1392), Xorazm (Gurganji) shahri qaytadan bunyod etildi (1393), Mo‘g‘uliston sarhadida Ashparada mustahkam qal‘a bo‘y ko‘rgizdi (1397), Hindiston muhorabasiga borayotib o‘n to‘rt kun deganda Eryob qal‘asini tikladilar, masjidi jome obod bo‘ldi (1398), Shomda, u yerdagi tabarruk ikki mazor ustida yigirma besh kunda oq toshdan ikki oliy gumbaz solindi (1400), Qorabog‘da to‘rt bozori, bisyor imoratlari, hammomu karvonсароуу, maydonu bog‘lari bo‘lgan, ikki tarafdin tosh bezaklari berilgan ikki darvoza, to‘rt tomondin hisor burjlari qad ko‘targan Boylaqon shahri barpo etildi, bir yillik ish bir oyda bitirildi (1403), Eronda Gulixandon qal‘asini “ganch bila toshdan imorat qildirdi” (1404)... Misollar ko‘p.

“Sohibqironning bovujud ulkim, doim ishi yurush edi va bir yerda o‘lturmas edi, – deb yozadi Sharafiddin Ali Yazdiy. – Ammo andin ancha imorat va ziroat va baqa‘oti xayr (qadamjo, maqbara binolari) har viloyatda yodgor qoldikim, soni yo‘q turur...”

Buyuk tarixchining so‘zlari aslo mubolag‘a emas. Biz ham Sohibqiron bunyod etgan, Sharafiddin Ali Yazdiy aytmoqchi “soni yo‘q...” binolarni sanab oxiriga yetish mushkulligini anglab, bu yumushdan o‘zimizni tiyamiz.

Ajab hikmatki, qaydadir janglar bo‘lib yotardi, Sohibqiron saltanatida qurilishlar, bunyodkorliklar tinmasdi...

Sohibqiron tabiatan quruvchi edi, uning faoliyati zamirida xalqimizning bunyodkorlik fazilati, “quraman” degan hayotbaxsh va yashovchan falsafasi mujassam edi. Biz buni Sohibqiron haqida yozilgan mu‘tabar asarlarda, ayniqsa, hozir ham ko‘z o‘ngimizda savlat to‘kib turgan muhtasham koshonalarda, imoratlarda ko‘ramiz, his etamiz, faxrlanamiz.

Bugun Yangi O‘zbekistonda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan keng ko‘lamdagi bunyodkorlik ishlarini ko‘rib lol qoladi kishi. Ha, Turon yurtida Sohibqiron ruhi kezbiz yuribdi. Yurtboshimiz rahnamoligida yaratilgan loyihalar asosida bunyod etilgan va etilayotgan “Yangi O‘zbekiston” bog‘i, monandi yo‘q Imom Buxoriy yodgorlik majmui, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Yangi Toshkent shahri, Yangi Toshkent aeroporti, viloyatlarda barpo bo‘layotgan “Yangi O‘zbekiston” massivlari, turizm maskanlari, aeroportlar va yana sanalsa, sanoq yetmaydigan qancha-qancha koshonalar, muhtasham saroylar, tibbiyot imoratlari, taxtiravon yo‘llarga boqib nigohlar quvnaydi, dillar farahlarga to‘ladi.

Amir Temur bunyodkorligi bugun ham yuksak sur‘atlarda davom etmoqda, olamni hayratga solmoqda.

Ertasiga umid bog‘lagan xalqqa qurilishga mehr qo‘yadi, bu an‘ana o‘zbekning qon-qoniga singib ketgan, avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda va shiddat bilan o‘tib boradi.

X asr geograf olimi Abu Is‘hoq Istaxriy o‘zining “Yo‘llar va mamlakatlar kitobi” nomli mashhur asarida Samarqand haqida to‘liqlanib yozarkan: “Kattaligi shunchaki, ko‘kalamzor va bog‘lar orasidan sakkiz kun yurasan”, so‘zlarini keltiradi. Bordi-yu, mo‘jiza yuz berib, o‘sha olim bugun O‘zbekistonga kelib qolsa, uning bog‘larini, shaharlarini kezbiz chiqish uchun, sakkiz kun emas, oylar, yillar kerak bo‘lardiki, bunga aslo shubha yo‘q!

Bir atrofimizga nazar tashlaylik: qay yerdadir olam notinch, yurtlar parokanda, janglar kechmoqda...

Lekin Amir Temur Vatani – mustaqil Yangi O‘zbekistonda qurilishlar tinmaydi, bunyodkorlik odimlari kuchaygandan kuchayib boradi, qadimiy hayotsevar yurtida ulug‘ an‘analar davom etayotganini jahonga ko‘z-ko‘z qiladi.

“Mening bir bog‘im borki, u Samarqanddahn Buxorogachadir...” so‘zlarini Sohibqironga nisbat beradilar.

O‘sha so‘zlardan namuna olib: “Bizning bir bog‘imiz bordir, u Andijondan Surxongacha, Chotqoldan Chimboygacha”, deb aytak, bunda hech qanday mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Sohibqironning Vatani – Yangi O‘zbekiston, jonajon yurtimiz, yaratuvchi xalqimiz, manguilik bog‘imiz shunday qutlug‘ so‘zlarga munosibdir.

Muhammad ALI,

Xalqaro Amir Temur jamoat fondi raisi, O‘zbekiston xalq yozuvchisi, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi.

“ Bu bog‘ning g‘ishtin va naqshin, lojuvard va oltin bilan bezatilgan baland va go‘zal darvozasi bor. Bog‘ nihoyatda katta. Unda mevali va sersoya daraxtlar ko‘p. Yog‘och panjaralar bilan ihotalangan shinam xiyobon va yo‘laklardan odamlar o‘tib turadi...”

devorlar bilan o‘ralgan, har bir burchagida g‘o‘lasifat burj-minora bo‘y cho‘zgan. Bog‘ o‘rtasida – oldida sarhovuzi bor katta chortoq uy...”

Amir Temur yurtining bu go‘zal chaman bog‘lari bilan qanchalar g‘ururlanganini his qilish mumkin. Mamlakatga kelgan mehmonlar bu bog‘larga, albatta, tashrif buyurishardi. Masalan, Klavixo Samarqandga kelayotib, Keshdagi muhtasham Oqsaroyini ko‘zdan kechirib, hayratga tushgach, Taxti Qorachadagi “Gulbog‘da sayr etadi, keyin “Bog‘i Dilkusho”, “Bog‘i Davlatobod”, “Bog‘i Nav”, “Bog‘i Chinor” bog‘larini tomosha qiladi. Jannat monand maskan – Konigilda o‘tgan bayramni esa elchilarga atay xalqimizning qadriyatlarini, mehmondo‘stligi, bag‘rikengligini ko‘rsatish, ko‘z-ko‘zlash uchun tashkil etilganiga shubha yo‘q.

Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida yozishicha, milodiy 1397-yil mart oyida Sohibqiron “Bog‘i Shimol”ni barpo etish haqida farmon beradi. Kecha-kunduz ish to‘xtamaydi, beklarda

ham bilsa bo‘ladi. Bu narsa uning uchungina emas, balki butun saltanat uchun ham hayotbaxsh dastur vazifasini ado etadi va saltanat rusumiga aylanadi.

“Amr etdimki, – deydi Sohibqiron “Tuzuklar”da, – kimki biron sahroni obod qilsa yoki koriz (yer tagidan o‘tkazilgan suv yo‘li yoki ariq) qursa, yo biron bog‘ ko‘kartirsa, yoxud biron xarob bo‘lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa (ya‘ni soliq) olmasunlar... xarob bo‘lib yotgan yerlarda korizlar qursunlar, buzilgan ko‘priklarni tuzatsunlar, ariqlar va daryolar ustiga ko‘priklar qursunlar, yo‘l ustida har manzilgohga rabotlar bunyod etsunlar... katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsunlar, faqiru miskinlarga langarxona solsunlar, bemorlar uchun shifoxona qurdursunlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasunlar. Har bir shaharda dor ul-imorat (saroy) va dor ul-adolat (qozixon) qursunlar...”

Ushbu so‘zlarning zamirida olam-

Toshkent shahrida dunyodagi eng yirik startap platformalardan biri – “Techstars Uzbekistan” dasturi ishga tushdi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-1242. 31 379 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma‘lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53;
e‘lonlar 71-259-74-55.

Tahriyatcha kelgan qo‘lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahriyatcha kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismatov tomonidan sahilandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas‘ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:
Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘ZA yakuni – 20.30 Topshirildi – 23.30 1 2 3 4 5 6

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhah S. Islomov.